

**MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI  
TARBIYALANUVCHILARIDA MATEMATIK  
O‘YINLAR ORQALI SAVODXONLIK DARAJASINI  
OSHIRISH USULLARI**

*M.B.Ro‘zmatova*

*UrDPI magistranti*

*Anotatsiya. Har bir Davlat Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish to'rtta asosiy yosh guruhlarida amalga oshiriladi. Bu guruhlar quyidagicha: kichik, o'rta, kata va bolalarni maktabga tayyorlov guruhlaridir. Ushbu har bir yosh guruhida bolalarga ularning dunyoqarashi va fikrlashidan kelib chiqqan holatda ta'lim tarbiya berish ishlari olib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda savodxonlik darajisini oshirish maboynda tarbiyachi-pedagoglar bolalarni qiziqtirish va ta'lim sifatini kengaytirish maqsadida turli xil interfaol metodlar, o'yinlar, matematik o'yinlar va o'yinli texnologiyalardan keng qamrovda foydalanishmoqda. Bu o'z navbatida Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari tamonidan "Takomillashtirilgan Ilk qadam" davlat o'quv dasturi va "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari"da belgilab qo'yilgan bilim, malaka, ko'nikmalarni oson o'zlashtirishlariga va ularning savodxonlik darajalarini oshirishga yordam bermoqda. Shuningdek ushbu maqola bolalarni savodxonlik darajasini oshirishda matematik o'yinlarning ahamiyati va u haqidagi olimlarning fikrlarini qarashlarini ko'rib chiqadi.*

*Kalit so'zlar: O'yin, Maktabgacha ta'lim tashkiloti, savodxonlik, faoliyat, metod, matematik o'yin, texnologiya.*

**Kirish**

Matematik o'yinlardan foydalanish bolalar tafakkuriga ijobiy ta'sir qilishi keng yoritiladi. Pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkillashtirilgan o'yin bolaning

axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan bir qatorda unda bilim olishga, atrofdagi olamning sirlarini kashf etishga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerakligi ta'kidlanadi. O'yin texnologiyasi an'anaviy ta'limda mavzud bo'lgan o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi va amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilab qo'yilgan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek olib borilayotgan faoliyatlarning mazmuni ularning yoshiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etiladi. Maktabgacha yosh davri- bolalarning rivojlanishining muhim bosqichi hisoblanadi, bu davrda ularning fiziologik, psixologik, jismoniy, ruhiy, hissiy ma'naviy, axloqiy, aqliy jihatdan rivojlanishini kuzatishimiz mumkin va shu bilan birgalikda ularda insonlarga mehr oqibatli bo'lish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish kabi bir qator insoniy fazilatlarni shakllantirish va tarbiyalashga zamin yaratiladi. Shu boisdan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mazkur maqsadlarga ko'ra qator tizimli ishlarni olib borishi, shu jumladan, turli didaktik o'yinlar texnologiyalaridan foydalanish va shu kabi matematik o'yin texnologiyalari vositalari orqali bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish, ularni har tomonlama barkamol, jismonan sog'lom, aqlan yetuk, ruhan tetik qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy vazifalaridan biridir. Bola hayotining asosiy qismini o'yin bilan o'tkazadi. K. D. Ushinskiy, "Bola uchun o'yin- Voqelikdir deb ta'kidlagan edi. Binobarin, tevarak atrofdagi voqeliklardan ko'ra ancha qiziqroq voqelikdir. U bolaga xususan tushunarli bo'lgani uchun qiziqdir, o'yin bolaga shuning uchun tushunarliki, unda qisman bolaning o'zi yaratgan narsa mavjud" [1]

Matematik o'yin texnologiyalari yordamida bolalarning faoliyati mustahkamlanishi bilan birga xar xil shakllar, geometrik figuralar to'g'risidagi ma'lumotlarni berish orqali bolalarning elementar matematik tasavvurlari shakllanib borishini kuzatamiz. Umuman olganda o'yinlar orqali bolalar faoliyati mustahkamlanadi, hayot haqidagi ilk tasavvurlari, jonli va jonsiz tabiat to'g'risidagi

o'y-fikrlarni, turli buyum predmetlarning ko'rinishi, nomi, rangi, shakli, tuzilishi, o'simlik va hayvonot olamidagi rang-baranglikni anglaydilar .O'yin maboynida bolalar turli qiyinchiliklarga duch keladilar, har qanday to'siqlarni yengib o'tishga harakat qilib o'rganib boradilar. Tarixiy jihatdan kuzatishimiz mumkinki, o'yin qadim zamonlardan mavjud bo'lgan va u ko'pgina pedagoglar, psixologlar, olimlar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. O'yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq vujudga kelgan bo'lib, jamiyatning hayotida mehnatdan keyin turishi bizga ma'lum va bu uning mazmunini belgilaydi. Bugungi kunda o'yinlarning turli-tuman turlari mavjud bo'lib: matematik o'yinlar milliy o'yinlar, harakatli o'yinlar, sport o'yinlari; so'z o'yini; qo'g'irchoq o'yini; ma'naviy- ma'rifiy o'yinlar; intellektual o'yinlar; o'ylab top o'yinlari; zamonaviy texnika va komputer o'yinlari shular sirasiga kiradi .[2]

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Taniqli pedagog olim F.N.Blixer ko'p yillar bolalarda matematik tasavvurlarini o'stirish masalalari ustida ishladi va bolalarni o'rganishida yengillik bo'lishi uchun boshqa ko'pchilik olim va olimalar singari turli xil matematik o'yinlar, o'yinli texnologiyalar bilan ham ish olib bordi.. U quyidagi kitoblarni yozdi: "Bolalar bog'chasi va nulevoy guruhda matematika", "Didaktik o'yinlar", "Birinchi sinfda qiziqarli o'yinlar va mashqlar", 1932, 1934, 1938, 1945, 1958-yillardagi tarbiya dasturlarining matematikaga o'rgatish bo'limini ishlab chiqdi. F.N.Blixer bolalarni sanashga o'rgatish kerak emas, sharoit yaratish kerak deydi. U maxsus mashg'ulotlarni inkor etadi. Faqat tayyorlov guruhlardagina mashg'ulot o'tkazish kerak, deydi. U ko'proq yakama-yakka, yo'l-yo'lakay o'rgatishning tarafdori bo'lgan. Bu bilan u Tixeeva va Shlegerlarning fikrini quvvatlaydi. Blixer didaktik o'yinlarga shu jumladan, matematik o'yinlar, o'yinli texnologiyalarga katta ahamiyat beradi. U juda qiziqarli didaktik o'yinlarni ishlab chiqqan bo'lib, didaktik o'yin bu o'rgatishning eng asosiy metodi ekanligini ta'kidlaydi. "Didaktik o'yinlar" kitobida tarbiyachilarning ish tajribalaridan foydalanadi, lekin ilmiy asoslanmaydi. Chunki, biz bilamizki, bolalarni faqat maxsus mashg'ulotlardagina o'rgatish mumkin. Didaktik o'yin esa asosiy metodlardan faqat bittasidir. Lekin u birdan bir metod bo'la olmaydi. U boshqa metodlar bilan birgalikda qo'llanilishi ham bizga

ma'lum. Shunday qilib, F.N. Blixer 30-40-yillar ichida bog'cha ishiga katta hissa qo'shdi. Lekin hayot ilm-fan bir joyda turmaydi, oxirgi 50-60-yillar davomidagi ilmiy ishlarning natijalari bolalar bog'chasida elementar matematika tasavvurlarini ishini ilmiy asosda olib borish imkonini berdi va shu bilan bir qatorda bolalarning har tomonlama bilim olishlari va savodxonlik darajasini oshirishida. Hozirgi vaqtda Blixerning didaktik o'yinlaridan qisman foydalanish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" kitobida "O'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama yetuk rahbar oldida dolzarb vazifa kelgusi avlodni komil inson qilib tarbiyalash vazifasi turibdi" degan fikrni e'tirof etadilar. Ayni shu so'zlardan kelib chiqqan holda aytish kerakki, maktabgacha ta'lim umuman olganda uzliksiz ta'limning birinchi bosqichi hisoblanib, u maktabda o'qish uchun tayyor bo'lgan sog'lom va to'laqonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashni ko'zda tutadi. Buning uchun biz kelajagimiz bunyodkori bo'lgan bolalarimizni har taraflama savodxon qilib tarbiyalashimiz zarur.

Quyida berilgan metodlar bolaning salohiyatini va savodini savodxonlikdarajasini oshirishga uni mukammal shaxs bo'lib tarbiya topishida muhim o'rin kasb etadi. Xususan:

1. Mashg'ulotda va o'yin faoliyatlarida qatnashishini rag'batlantirish : Bolalarni ularni qiziqishiga mos keladigan turli xil anjomlar o'yinchoqlar va o'qish materiallari bilan ta'minlang. Uyda ham oila a'zolari bilan bugungi o'tkazilgan faoliyat va o'yinni davom ettirishi va mustahkamlab qo'yishi uchun qulay muhit yarating;

2. Texnologiyalardan foydalaning: Bolalarni qiziqtiradigan va faoliyatni qiziqarli qiladigan ta'lim ilovalari, elektron kitoblar va dasturlar hamda interaktiv veb-saytlardan foydalaning. Biroq, ekran vaqtini mashg'ulotlar va o'yinlar bilan muvozanatlash muhim;

3. Bolani rag'batlantiring: Har bir qiladigan ijodini inobatga olgan holda uni qo'llab-quvvatlang. Ya'ni, "Sen uddalading'", "Sen uddalay olishingga ishongan

edim “ “Sen juda kuchlisan”, “Menga qilgan ishing yoqdi”, “Ofarin” “ Barakalla” “Ota-onagga raxmat” kabi soʻzlar va maqtovlar orqali boʻlajak komil shaxsni yaratib boring;

4. Maktab va oʻqituvchilarni qoʻllab- quvvatlash: Savodxonlikka boy muhit yaratish uchun maktablar va oʻqituvchilar bilan hamkorlik qiling;

5. Buni qiziqarli tarzda amalga oshiring : Bolalarni oʻzlarini sevimli mashgʻulotlari bilan bogʻliq obyektlarga jalb qiling. Masalan, faoliyatda, oʻyinda ilhomlangan bola uchun badiiy asar yaratish yoki sahna koʻrinishlari tayyorlash;[3]

Maktabgacha tarbiya pedagoglari bolalarni ogʻzaki va yozma til bilan doimiy ravishda tanishtirish va shu kabi ularni savodxonlik darajasini oshiradigan keng qamrovli bilimlar berish, oldingi bilim va til tajribasiga tayanish orqali savodxonlikni rivojlantiradilar.. Uning oʻqituvchisi maktabgacha yoshdagi oʻqishni rivojlantirish uchun faoliyat uchun moʻljallangan xonada turli xil qiziqarli strategiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiq boʻladi.Savodxonlikni har kunning bir qismiga aylantirish juda foydalidir. Shuningdek, bolalar xavfsiz tajriba va oʻz dunyosini kashf qilish imkonini beruvchi bevosita tajribalarni qoʻllash kerak, bular ham faoliyat va uni mustahkamlovchi oʻyin barobarida amalga oshadi. Har bir bola oʻziga xos vaqt oraligʻida bilim, malaka, koʻnikmalarini oʻrganadi va rivojlantiradi, ammo barcha yosh bolalarga quyidagilar kerak:

- ❖ Rivojlanayotgan koʻnikmalarni rivojlantirish va amaliyotda qoʻllashning imkoniyatlari;
- ❖ Ragʻbatlantirish va harakat uchun maqtovlar;
- ❖ Doimiy oʻrganish oilaviy qadriyat ekanligini tushunish;
- ❖ Ota-onalar va boshqa gʻamxoʻrlik qiluvchilar uning rivojlanishiga mos keladigan oʻquv faoliyatini rejalashtirishga yordam berishi;
- ❖ Oʻqish va amaliy mashgʻulotlar uchun maxsus joy.Bolani maktabda muvaffaqiyatli taʼlim olishga tayyorlash uchun unga savodxonlikning barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur. [4]

### **Natijalar va Muhokama**

Xoʻsh, Maktabga tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarida matematik

o'yinlar orqali savodxonlik darajasini oshirish qanday shaklda va tartibda olib boriladi uning usullari qay darajada ahamiyatli va muhimmatematik o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. matematik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud bo'ladi. Agar ushbu sifatlar kuzatilmas o'yin yahshi samara bermaydi. O'yin niyati o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi, o'yinning harakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Matematik o'yinlar orqali bolalarga yangiliklar, yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolalarning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashib boradi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yinning mazmunini boyitib beradi. Matematik o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan shuningdek, turli xil geometrik figuralardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida matematik o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi lozim. Bunday o'yinlar faoliyat jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka tartibda o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Matematik o'yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

1. Navbatma-navbat ta'sir etish;
2. So'ralganda javob berish;
3. O'rtoqlari fikrini eshita olish;
4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik;
5. O'yin qoidasini bajarish;
6. O'z xatosini tan olish.

Matematik o'yinlarda bolalarning yosh xususiyatlarini, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega. Faoliyatda qo'llaniladigan o'yinlar va o'yin mashqlari bolalarda quvnoq, mehnatkash kayfiyatni yaratadi, o'quv materialini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi, ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi.

Matematik o'yin ta'lim va tarbiyaning boshqa shakllari bilan birlashtirilgan va o'zaro bog'liq bo'lgan yaxlit pedagogik jarayonning bir qismidir. Bolalarnutqini rivojlantirish uchun o'yinlar va mashqlar ishlab chiqilgan. Ta'lim jarayonida matematik o'yinlar tarbiyalanuvchilarning xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bolalarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini beradi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan matematik o'yinlar 2 xil tasniflanadi:

1. Mazmuniga ko'ra
2. Amalga oshirish shakliga ko'ra

Maktabgacha ta'lim davrida tarbiyalanuvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda matematik o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, har faoliyatning o'ziga xos bo'lgan matematik o'yinlari bor. Jumladan, matematika mashg'ulotlarida matematik o'yinlardan foydalanish bolalarning zehni o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabga tayyorlov va shu bilan bir qatorda kichik, o'rta va katta guruhlarda matematik o'yinlar va o'yin texnologiyalardan foydalangan holda faoliyat tashkil qilish, ushbu faoliyatni bolalar tomonidan ajoyib va to'la to'kis holda ilg'ab olishlariga imkon yaratadi. Bundan tashqari bu jarayonda tarbiyachi pedagog va guruhdagi bolalar o'rtasidagi munosabatlar ijobiy tus oladi, har bir bola o'zini erkin his qilgan holda tushuna olmay qolgan bilimlarini so'rab o'rganib, mustahkamlab oladilar. Shuningdek, o'yin orqali o'rganish, eng qiziqarli va hayajonli faoliyat bo'lib, ularning qiziqish va ishtiyoqni kichikdan bosqichma-bosqich kattaga o'tkazishga hissa qo'shadi va o'quv faoliyati uchun o'yin juda samarali vosita sanaladi. Bolalarni o'ziga jalb qiladigan o'yin, ularga og'irlik tug'durmaydi, na aqliy, na jismonan ortiqcha qiyinchilik yuklamagan hisoblanadi. Bolalarning qiziqishi aniq o'yin asta-sekin nafaqat o'rganishga bo'lgan qiziqishga, balki haqiqatga ham aylanadi va tarbiyachi-pedagog o'rgatmoqchi bo'lgan faoliyat bolalar tomonidan o'zlashtiriladi. Bolalarga o'rgatilgan bilim na faqat keying faoliyatlarda, balki ularning kelgusi ilm yo'llaridagi qadamlarida ham asqotadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Komenskiy Ya.A. “Ajoyib didaktika”. M., 1955 yil.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rganishga tayyorlash. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7378190>
3. F.M.Bekchanova Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>. “The value of observation in environmental education of preschoolers” № 2/S, 4 tom, 123-bet.
4. Ways to ensure the active participation of parents in the educational process in preschool education. G.A. Kamalova Oriental Journal of Education 2 (1), 8-15.  
WAYS TO ENSURE THE ACTIVE PARTICIPATION OF PARENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRESCHOOL EDUCATION (cyberleninka.ru)